

**GIDROGEOLOGIYA VA INJENERLIK GEOLOGIYASI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.24/30.12.2019.GM.96.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

TESHAYEVA RUXSORA BAHODIR QIZI

**SHAHAR HUDUDLARINI SEYSMIK MIKRORAYONLASHTIRISH
UCHUN SEYSMOGRUNT SHAROITLAR MODELLARINI
ISHLAB CHIQISH**

04.00.04 – Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa dokroti (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Teshayeva Ruxsora Bahodir qizi

Shahar hududlarini seysmik mikrorayonlashtirish uchun
seysmogrunnt sharoitlar modellarini ishlab chiqish.....3

Тешаева Рухсора Баходир кизи

Разработка моделей сейсмогрунтовых условий для сейсмического
микрорайонирования городских территории21

Teshaeva Rukhsora Bahodir kizi

Development of models of seismic soil conditions for seismic
microzoning of urban areas.....41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....45

GIDROGEOLOGIYA VA INJENERLIK GEOLOGIYASI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.24/30.12.2019.GM.96.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
SEYSMOLOGIYA INSTITUTI

TESHAYEVA RUXSORA BAHODIR QIZI

SHAHAR HUDUDLARINI SEYSMIK MIKRORAYONLASHTIRISH
UCHUN SEYSMOGRUNT SHAROITLAR MODELLARINI
ISHLAB CHIQISH

04.00.04 – Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi

GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa dokroti (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/GM214 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Seysmologiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbekcha, ruscha va inglizcha-rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.hygroengeo.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismailov Vaxitxan Alixanovich
geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kayumov Abdubaki Djalilovich
texnika fanlari doktori, professor

Mingboyev Qodirjon Ro'zimovich
geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Hidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/30.12.2019.GM.96.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «21» avgust soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100041, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64-uy; Tel.: (+99871) 209-10-79; faks: (+99871) 262-62-15; e-mail: gidro_ilmkeng@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Girogeologiya va injenerlik geologiyasi institutining Axborot-resurslar markazida tanishish mumkin (61 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100041, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64-uy. Tel.: (+99871) 209-10-79; faks: (+99871) 262-62-15; e-mail: gidro_ilmkeng@mail.ru

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «4» avgust kuni tarqatildi.

(2025 yil «4» avgustdagi 10- raqamli reyestr bayonnomasi)



A.A. Maylonov,
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
g.-m.f.d., katta ilmiy hodim

M.R. Jo'rayev,
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
g.-m.f. falsafa doktori (PhD), katta ilmiy hodim

I.X. Xabibullayev,
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi
t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida seysmik xavf va seysmik xatarni baholashda grunt sharoitining seysmik tebranish parametrlariga ta'sirini o'rganish katta ahamiyatga ega. Grunt sharoiti geologik va litologik tuzilishiga, fizik, mexanik va seysmik xususiyatlariga qarab, muhandislik inshootlariga seysmik ta'sir darajasini belgilaydi. Grunt sharoitlarining seysmik tebranishlari parametrlarini ilmiy va amaliy tadqiq etish muayyan hududlarda seysmik ta'sirlar jadalligini ishonchli prognoz qilish uchun asos bo'ladi. Seysmogrunt modellari yordamida seysmik mikrorayonlashtirish jarayonida grunt sharoitlarini har tomonlama o'rganish, qurilish obyektlarida seysmik ta'sir darajasini mufassal baholash amaliyotda dolzarb yo'nalish hisoblanmoqda.

Dunyoning rivojlangan davlatlarda, qurilish obyektlarida grunt sharoitlarining ta'sirini hisobga olgan holda muhandislik inshootlariga seysmik ta'sirlarni bashorat qilishning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqish bo'yicha global miqyosda maqsadli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, gruntlarning fizik xossalari va qurilish obyektlarida tarqalgan gruntlarning turli qatlamlarida seysmik to'lqinlar tarqalishining o'ziga hos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan seysmogrunt modellaridan foydalanish, seysmik ta'sirlarni yanada ishonchli baholash, aholi va hududlarning seysmik xavfsizligini ta'minlaydigan, seysmik bardoshli muhandislik inshootlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi hududi seysmik faol mintaqada joylashganligi va urbanlashtirish faol o'sib borayotganligi sababli, yirik shahar hududlarida grunt sharoitining ta'sirini hisobga olgan holda, hududlarni seysmik mikrorayonlashtirish asosida seysmik xavfni baholash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish zarur talabga aylanib bormoqda. "O'zbekiston – 2030" taraqqiyot strategiyasida "...Respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir etuvchi ekologik muammo va hodisalarni bartaraf etish..."¹ ga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Shu munosabat bilan Respublika hududining o'ziga xos muhandislik-geologik sharoitlarini hisobga olgan holda eng yangi usul va texnologiyalardan foydalanib seysmik mikrorayonlashtirish xaritalarini tuzish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4794-son qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi "O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-144-son Farmoni, hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy- huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-son Farmoni.

rivojlantirishning VIII “Yer fanlari (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xom ashyoni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi kunga qadar grunt sharoitining yer yuzasida kuchli zilzilalar intensivligiga ta’siri masalalari S.V.Medvedev, V.V.Popov, G.N.Nazarov, A.N.Vaxanova, N.I.Kruger, A.S.Aleshin, A.D. Kojevnikov, Y.I.Baulin, I.G.Mindel, V.V. Sevostyanov, V.V. Zaalishvili, O. V. Pavlov, V. Jurik va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan va nashr etilgan.

Markaziy Osiyo hududlarining injenerlik-geologik sharoitlarini seysmik ta’sirining o‘zgaruvchanligiga ta’sir qiluvchi komponentlarning miqdoriy bahosi va ularning axborot mazmuni G‘.O.Mavlonov, V.M.Mirzayev, S.M.Qosimov, A.T.Turdiqulov, A.M.Xudoybergenov, M.Sh. Shermatov, E.M.Yesenev, S.A.Abdurahmonov, T.S.Valiev, A.Juraev, N.Juraev, X.Mirzaboev, K.Sh.Nurmuhammedov, V.A.Ismailov va boshqalarning ishlarida keltirilgan.

Grunt sharoitini seysmik ta’sirlar natijasidagi xatti-harakatlarini turli fizik-matematik modellarda baholashning nazariy jihatlarini K. Ishixara, L. I. Ratnikova, T.U. Artikov, B. Mardonov, M. P. Salganik, T. Soatov, Y.K. Chernov, V.Y.Sokolov va boshqalarning ishlarida ko‘rib chiqilgan. Seysmik va elastik model M.N. Golubtsova va O.Y. Shekhter, E. Fachiollining ishlarida qo‘llanilgan, yer usti qatlamini to‘liq kesib o‘tadigan sun’iy poydevorni qurish evaziga seysmik ta’sir intensivligini pasaytirish usullari o‘rganilgan.

Shaharsozlik rejalari va muhandislik inshootlarini loyihalash qat’iy ravishda grunt sharoitlarini hisobga olgan holda seysmik xavfni baholashga asoslanganligi sababli, seysmik mikrorayonlashtirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan va xaritalar ishlab chiqilgan. G‘.O.Mavlonov, N.I.Kruger, A.S.Aleshin, Y.I.Baulin, V.V.Zaalishvili, O.V.Pavlov, V.I.Djurik, V.V.Sevastyanov, I.G. Mindel, A.D.Kojevnikov, V.I.Ulomov, V.M.Mirzayev, C.M.Qosimov, S.A.Abduraxmanov, Y.K.Chernov, T.C.Valiyev, K.Sh.Nurmuhammedov, R.T.Yunusxodjayev, V.A.Ismailov va boshqalarning ishlarida seysmik mikrorayonlashtirishning ba’zi jihatlarini o‘z aksini topgan. Seysmogrunnt sharoit modellari T.U.Mamarozikovning dissertatsiya ishida keltirilgan bo‘lib, unda Andijon shahri hududida seysmik mikrorayonlashtirish ishlarida grunt qatlamlarining seysmik tebranish parametrlari turli geofizik usullar yordamida baholangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Fanlar akademiyasi Seysmologiya institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Qurilish maydonlarining seysmiklik darajasini (makroseysmik ballarda va muhandis ko‘rsatkichlarida) aniqlash uchun grunt sharoitlarining seysmik modellarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish mexanizmini yaratish” (2021-2023-yillar), shuningdek, «QMQ 2.01.03-96 “Seysmik hududlarda qurilish” me’yoriy hujjatining seysmologik qismi 1.1-jadvalini o‘zgartirish uchun gruntnlarning seysmik ko‘rsatkichlari bo‘yicha elektron ma’lumotlar bazasini yaratish» AL-5822012298 (2024-2025 yillar) ilmiy-amaliy loyihalari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqot maqsadi: turli muhandislik-geologik sharoitlarda, seysmogrunt modellarini ishlab chiqish asosida, grunt qatlamlaridagi seysmik tebranishlar parametrlarining o'zgarishi xususiyatlarini aniqlash va ularni shahar hududlarini seysmik mikrorayonlashtirishda (SMR) amaliy qo'llashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

shahar hududlarining turli muhandis-geologik sharoitlarida seysmik jadallikning o'zgarishi xususiyatlarini aniqlash;

hududning seysmik intensivlik parametrlariga ta'sir qiluvchi turli muhandis-geologik sharoitlarda seysmik tebranish ko'rsatkichlarini tanlash;

geofizik tadqiqotlar asosida shahar hududlarining seysmogrunt sharoitlari modellari katalogini yaratish;

turli seysmogrunt sharoitlari modellarida grunt qatlamlarining seysmik ta'sirlari chastota xususiyatlarini tahlil qilish va baholash;

seysmogrunt sharoitlari modellari asosida hududning seysmik jadallik orttirmasini baholash va natijalarni oldingi tadqiqotlar bilan taqqoslash;

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent, Nurafshon va Chirchiq shaharlari grunt sharoitlari olingan.

Tadqiqotning predmetini grunt qatlamlarining seysmogrunt modellaridan foydalangan holda muhandis-geologik parametrlarida yer yuzasiga seysmik ta'sirni aniqlash va undan seysmik mikrorayonlashtirish xaritalarini yaratishda foydalanish tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Shaharlarda keng tarqalgan gruntlarning turi, litologik tarkibi va fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash uchun geofizik tadqiqot usullari, shu jumladan MASW seysmik-qidiruv usuli, shuningdek, dala muhandislik - geologik tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, maxsus seysmik modellarini yaratishda "Proshake" va "Deepsoil", shuningdek, "STRATA" dasturlaridan foydalangan va qurilish obyektlarida tarqalgan gruntlar yuzasiga seysmik ta'sirni baholashda dastlabki ta'sirlar sifatida O'zbekiston Respublikasi hududida sodir bo'lgan real zilzilalarning qaydlari va hududlarga moslashtirilgan sintetik akselerogrammalarni yaratish va tanlash usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

gruntlarning turlari, qatlamlarning soni va qalinligi, qatlamlarning fizik va seysmik xususiyatlarini hisobga olgan holda, shahar hududlarida seysmik jadallikning namoyon bo'lish xususiyatlari aniqlangan;

seymogrunt modellarini ifodalovchi, hamda seysmik jadallik orttirmasiga ta'sir qiluvchi seysmik tebranish ko'rsatkichlari aniqlangan;

seysmogrunt modellari asosida seysmik tebranishlarning amplituda - chastota ko'rsatkichlari bilan seysmik qattqlik o'rtasidagi funksional bog'liqlik aniqlandi, hamda rezonans xususiyatlariga bog'liq holda seysmik jadallik orttirmasining miqdoriy o'zgarishi aniqlangan;

Toshkent, Nurafshon va Chirchiq shaharlari uchun ishlab chiqilgan seysmogrunt modellaridan foydalanib, turli grunt sharoitlarida yuzaga keladigan gruntlarning dinamiklik koeffitsientini hududiy o'zgarishi hamda ular asosida seysmik jadallik orttirmasini baholash uslubiyati takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

O'zbekiston Respublikasining 18 ta (Olmalik, Bekobod, Buxoro, Guliston, Jizzax, Zarafshon, Qarshi, Navoiy, Nukus, Nurafshon, Samarqand, Termiz, Urganch, Chirchiq, Shahrisabz, Yangiyer, Yangiyo'l, Xiva) shaharlari uchun seysmogrunt sharoitlari modellari ishlab chiqilgan;

qurilish maydonchasining sintetik akselerogrammalarini ishlab chiqish uchun asos bo'lgan seysmik tebranish ko'rsatkichlari aniqlangan;

seysmik jadallik orttirmasini baholash amaliyotida, dinamiklik koeffitsienti yordamida, takomillashtirilgan tenglama taklif qilingan;

seysmogrunt sharoitlari modellarini qo'llagan holda Toshkent shahri hududining seysmik mikrorayonlashtirish xaritasining muqobili tuzilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Respublika shaharlari hududlarida olib borilgan muhandislik-geologik, geofizik va instrumental-seysmologik tadqiqotlar ma'lumotlari bilan tasdiqlangan. Jumladan, 1815 ta seysmik-qidiruv va instrumental seysmometrik tadqiqotlar punktlarida olingan natijalardan foydalanilgan va Respublikaning turli shahar hududlari uchun tuzilgan 40 ta muhandislik-geologik qirqimlardan hududlarning seysmikligini baholashning nazariy hisob-kitoblari uchun foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shahar hududlarini seysmik mikrorayonlashtirish jarayonida qurilish obyektlarida tarqalgan gruntlarning muhandis geologik sharoitini modellashtirish orqali gruntlarning dinamiklik koeffitsientini aniqlanganligi, hamda seysmik jadallik orttirmasini baholash usulini gruntlarning dinamiklik koeffitsienti hisobga olgan holda takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, Toshkent, Nurafshon hamda Chirchiq shaharlari hududi bo'ylab dinamiklik koeffitsientining taqsimlanishi xaritasi, seysmik jadallik orttirmasi, seysmik mikrorayonlashtirish xaritalari, shuningdek, elektron katalogga kiritilgan 18 ta shahar grunt sharoitining hisoblangan seysmogrunt modellarini tuzilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi. Qurilish maydonlari va shaharlarning seysmikligini baholashda olingan ilmiy natijalar asosida:

aniqlangan grunt turlari, qatlamlarning soni va qalinligi, qatlamlarning fizik va seysmik xususiyatlari, shuningdek, grunt qatlamlari tebranishlarining amplitudachastota xususiyatlari kabi muhandislik-geologik sharoit ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda, shaharlar hududida seysmik jadallikning namoyon bo'lish xususiyatlari O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 15-yanvardagi 20-06/498-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, shahar hududining seysmik jadalligi o'zgarish xususiyatlarini samarali baholash uchun foydalanilgan;

seysmogrunt modellarini tavsiflovchi, seysmik jadallikga ta'sir qiluvchi, seysmik tebranish ko'rsatkichlarini (Vs_{30} , ΔI , PGA , b , ρ_{30}) tanlashga asoslangan parametrlar O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 15-yanvardagi 20-06/498-sonli

ma'lumotnomasi). Natijada, seysmogrunt modellarining tarkibiy parametrlari tanlash imkoni berilgan.

seysmogrunt sharoit modellari uchun grunt qatlamlarining seysmik reaksiyada rezonans chastotali xususiyatlarini seysmik jadallikka ta'sirini baholash modellari O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 15-yanvardagi 20-06/498-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar gruntlarning rezonans chastota xususiyatlarini o'zida saqlovchi dinamiklik koeffitsientini seysmik qattiqlik parametri orqali aniqlash imkonini bergan;

O'zbekiston shaharlari hududi uchun tuzilgan seysmogrunt modellarining umumiy katalogi O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 15-yanvardagi 20-06/498-sonli ma'lumotnomasi). 18 ta shahar hududining seysmogrunt sharoitlari modellarini ishlab chiqishdan olingan natijalari qurilish obyektlari hududining seysmikligini tavsiflashda aniqlilik darajasi oshirilgan;

ishlab chiqilgan seysmogrunt modellari asosida qurilish maydonlarida seysmik jadallik orttirmasini baholashning takomillashtirilgan metodikasi O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 15-yanvardagi 20-06/498-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Toshkent shahri hududining seysmik mikrorayonlashtirish xaritasining muqobilini ishlab chiqish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarinining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi 6 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarini e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 16 ta maqola va tezislar chop etilgan. Shundan 9 ta tezis, 7 ta ilmiy maqola. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalari 5 ta ilmiy jurnalda, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan 4 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 129 betni tashkil etadi.

DISSERTATSINING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida, dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va talabi, tadqiqot maqsadi va vazifalari asoslanadi, tadqiqot obyekti va predmetini ochib beriladi, tadqiqot Respublikaning fan va texnika rivojlanishidagi ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligini ko'rsatiladi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, ularning ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish yo'llari ko'rsatilgan, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissetatsiyaning birinchi **“Seysmogrunt modellari va ulardan muhandislik-seysmologik masalalarni hal qilishda foydalanishning hozirgi holati”** bobida hududlarning seysmik xavfini baholash, ma’lum qurilish obyektlarida seysmik ta’sir parametrlarini va kuchli zilzilalar vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan zararlarni aniqlash kabi qator masalalarni hal qilish uchun seysmogrunt sharoit modellarini ishlab chiqish bo’yicha ilmiy tadqiqotlar natijalari ko’rib chiqilgan.

Turli mintaqalar uchun seysmogrunt modellarini ishlab chiqqan Rossiya muhandislik seysmologiyasi olimlari bu yo’nalishda eng ilg’orlardan hisoblanadilar. Bunday modellar gruntlarning fizik-mexanik xossalarini, ularning suv bilan to’yinganligini, nochiziqlik xususiyatlarini va seysmik ta’sir ostidagi dinamik harakatlarini hisobga oladi. Ushbu tadqiqotlar A.S.Aleshin va V.V.Zaalishvilining monografiyalarida umumlashtirilib, ular qurilish maydonlarining seysmik ta’sirini baholash va seysmogrunt modellari asosida shahar hududlarini seysmik mikrorayonlashtirishga katta hissa qo’shganlar.

Xorijiy tadqiqotchilardan Pol Jennings, J. Barde kabi olimlar grunt sharoitini modellashtirishga, ishlab chiqilgan modellar asosida grunt qatlamlarining nochiziqli xususiyatlarini namoyon bo’lishi nazariyasini takomillashtirishga katta hissa qo’shdilar. Ishlab chiqilgan modellardan foydalanish kuchli zilzilalar episentral zonasida grunt qatlamlarining harakatini aniqroq bashorat qilish imkonini berdi. AQSHdan Jonatan Styuart va Murat B. Darendeli sirt seysmik to’lqinlarining tarqalishini va ularning ko’p qatlamli yer osti muhitlari bilan o’zaro ta’sirini, shu jumladan rezonans effektlarini o’rganishdi.

Birinchi marta Thomson (1950) va Haskell (1951) tomonidan taklif qilingan qatlamli muhitni matritsali tavsiflash usuli zamonaviy hisoblash modellarini yaratish uchun asos bo’ldi. Ushbu yondashuv seysmik to’lqinlarning yer osti qatlami tizimi orqali tarqalishini yuqori aniqlik bilan tahlil qilish imkonini bergan.

SMR ishlari muammolarini hal qilishda, ya’ni grunt sharoitining seysmik ta’sir parametrlariga bo’lgan bog’liqligini seysmogrunt modellari asosida baholashda, turli jadallikka ega zilzilarda seysmik tebranishlarning ishonchli va zarur natijalarni olish imkoniyatini orttiradi. Shuni hisobga olgan holda, grunt qatlamlarining fizik holati atributlarini real aks ettiruvchi seysmogrunt sharoitlari modellarining loyihasi ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan seysmogrunt modellaridan foydalanish seysmik ta’sirlar parametrlarini (PGA, PGV, PGD, amplituda-chastota xarakteristikalarini, javob spektrlari, deformatsiyaning chiziqli bo’lmagan xususiyatlari va boshqalar) baholash uchun zarur ma’lumotlarni olish imkonini beradi.

Muhandis - seysmologik tadqiqotlar asosida Toshkent, Andijon, Namangan, Olmaliq, Bekobod, Buxoro, Guliston, Jizzax, Zarafshon, Qarshi, Navoiy, Nukus, Nurafshon, Samarqand, Termiz, Urganch, Chirchiq, Shahrisabz, Yangiyer, Yangiyo’l va Xiva shaharlari hududlarida seysmik jadallik orttirmasini baholash va seysmik ta’sir parametrlarini aniqlash imkonini beruvchi 1800 dan ko’proq seysmogrunt sharoitlari modellari tuzildi.

O’zbekiston Respublikasining 18 ta shaharlari hududidagi grunt sharoitining ishlab chiqilgan modellarini tahlil qilish Vs30 ko’rsatkichi bo’yicha turli zonalarini

aniqlash imkonini beradi. 30 m chuqurlikdagi grunt sharoitlari Vs30 qiymatiga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi: (200-300 m/s), (301-400 m/s), (401-500 m/s), (501-600 m/s), (601-700 m/s), (701-800 m/s), (800-900 m/s). Ushbu guruhlarning har biri ma'lum miqdordagi modellarni o'z ichiga oladi. Grunt sharoitlarining eng katta qismi (45%) Vs30 301-400 m/s oralig'ida tarqalgan, bu O'zbekiston Respublikasidagi o'rganilgan hududlar bo'ylab ushbu toifadagi o'rtacha qattiq gruntlarning ustunligini ko'rsatadi.

Dissertasiyaning **“Shaharlar hududining muhandislik-geologik sharoitining o'ziga xos xususiyatlari va seysmik jadallik orttirmasini baholash (Toshkent, Nurafshon va Chirchiq misolida)”** deb nomlangan ikkinchi bobida, Toshkent, Nurafshon va Chirchiq shaharlarining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, grunt qatlamlari qirqimlarida seysmik xususiyatlarini hisobga olgan holda muhandislik-geologik rayonlashtirish ishlari keltirilgan. Toshkent shahri hududi geologik va strukturaviy tuzilishiga qarab muhandislik-geologik rayonlashtirish xaritasida A, B, C va D harflari bilan belgilangan to'rtta muhandislik-geologik rayonlar aniqlangan. Har bir muhandislik-geologik rayonda, 1:25000 masshtabdgi xaritada, litologik qirqim bo'ylab (30 metr chuqurlikda) muhandislik-geologik uchastkalar aniqlangan.

A rayoni shaharning shimoliy va shimoli-sharqiy qismlarida joylashgan strukturaviy branxi-antiklinal ko'tarilishlar va ularning yon bag'irlarini qamrab oladi. Bu rayon litologik kesimga ko'ra ikkita uchastkaga ajratilgan.

B rayoni Toshkent hududining eng katta qismini qamrab olgan bo'lib, asosan uning suv havzasi yo'nalishlarida, Toshkent, Chirchiq va Chig'atoy ko'tarilishlariga to'g'ri keladi. Bu rayon litologik tarkibiga ko'ra oltita uchastkaga ajratilgan.

C rayoni Toshkent tekisligi bo'ylab joylashib, landshaftni ajratib turuvchi vodiylar va jarliklar tarmog'i bilan ajralib turadigan murakkab geomorfologiyaga ega. Ushbu rayonda litologik kesimga ko'ra beshta uchastka ajratilgan.

D rayoni shaharning janubiy va janubi-sharqiy qismlarida, jumladan, Chirchiq daryosining zamonaviy vodiysi hududlarini egallaydi. Bu rayonda litologik kesimga ko'ra uchta uchastka ajratilgan.

MASW seysmik-qidiruv usuli asosida har bir uchastkada grunt qatlamlaridagi seysmik xususiyatlar o'rganildi. Umuman olganda, Toshkent shahri hududi bo'ylab 648 dan ortiq tadqiqot punktlarining seysmik xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlar olingan. 1-jadvalda aniqlangan muhandislik-geologik rayonlar va uchastkalarining grunt qatlamlari seysmik xususiyatlarining umumlashtirilgan natijalari keltirilgan.

Mavjud me'yoriy hujjatlar va muhandislik-geologik omillarga ko'ra, Nurafshon shahrining butun o'rganilayotgan hududi 4 ta muhandislik-geologik rayonga bo'lingan. Ko'ndalang to'lqinlarning tarqalish tezligini aniqlash va shaharda seysmik jadallik orttirmasini baholash uchun MASW usuli bo'yicha 41 nuqtada seysmik qidiruv ishlari olib borildi, bu esa Nurafshon hududida Vs30 qiymatini aniqlash imkonini berdi. Vs30 ko'rsatkichi 263-524 m/s oralig'ida o'zgarib turadi, seysmik jadallik orttirmasi 0,27 dan 0,72 ballgacha o'zgarishi kuzatildi.

Toshkent shahrining muhandislik-geologik rayonlari va uchastkalari bo'yicha Vs30 o'rtacha qiymati va seysmik jadallik orttirmasi qiymatlarining taqsimlanishi


Muhandis-geologik rayonlar indeksi	O'rtacha Vs30 qiymati, m/s	Muhandis – geologik uchastka-lar indeksi	Tadqiqot punkt-lari soni	30 metrli qatlamning o'rtacha zichligi qiymati, g/sm ³	O'rtacha Vs30 qiymati, m/s	Seysmik jadallik orttirmasi-ning o'rta qiymatlari*, ball	Seysmik jadallik orttirmasi-ning qiymatlari o'zgarish diapazoni*, ball
A	471,98	A1	1	2,07	770	-0,15	-0,15≥
		A2	12	1,81	453,89	0,12	-0,1-+0,27
B	363,6	B1	16	1,79	390,13	0,45	0,17-0,57
		B2	57	1,76	379,28	0,5	0,1-0,8
		B3	165	1,74	352,8	0,55	0,1-0,89
		B4	5	1,78	407,22	0,44	0,12-0,73
		B5	7	1,77	415,3	0,42	0,22-0,71
		B6	11	1,72	327,94	0,61	0,41-0,77
C	369,4	C1	7	1,78	422,8	0,45	0,23-0,72
		C2	7	1,72	324,9	0,61	0,47-0,74
		C3	47	1,73	352,3	0,56	0,2-0,86
		C4	49	1,76	374,9	0,5	0,1-0,75
		C5	6	1,75	378,5	0,51	0,21-0,72
D	549,9	D1	13	1,84	455,9	0,2	0-0,4
		D2	211	1,87	544,5	0,18	-0,21-0,5
		D3	34	1,87	530,6	0,2	-0,21-0,4

* ($V_s = 600 \text{ m/s}$, $\rho = 2,0 \text{ g/sm}^3$) referent gruntlarga nisbatan


Chirchiq shahri hududida MASW usulida 41 nuqtada seysmik qidiruv ishlari olib borildi va 30 m qalinlikdagi ko'ndalang to'lqini tezligi qiymatlari olindi. Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, grunt sharoitlari (geologik-litologik tuzilishi, muhandislik-geologik xususiyatlarining ko'rsatkichlari va genetik tipdagi gruntlarning fazoviy joylashuvi) Vs30 qiymatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shunday qilib, Vs30 ning yuqori qiymatlari I va II terrasa hududiga (451-770 m/s) va eng past qiymatlar lyoss va lyossimon qatlamli (331-440 m/s) IV terrasa hududiga to'g'ri keladi. Ta'kidlanganidek, lyoss qatlamlari seysmik jadallikning yuqori qiymatlari 0,5 ballgacha o'sishi kuzatilgan.

Dissertatsiyaning **“Seysmogrunt modellarining seysmik qattiqqligi asosida gruntlarning dinamiklik koeffitsientini aniqlash”** deb nomlangan uchinchi bobi turli seysmogrunt sharoit modellarida grunt qatlamlarining amplituda-chastota xususiyatlarining ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Seysmik jadallik orttirmasi va yer yuzasidagi cho'qqi tezlanish ko'rsatkichlariga rezonans xususiyatlarining ta'sirini tekshirish uchun, Strata dasturidan foydalangan holda, ikki qatlamli muhit modellarida tadqiqotlar o'tkazildi. Eksperimental modellarda Vs30 qiymatlari (yuqori 30 metrda qatlamning o'rtacha ko'ndalang to'lqinining tarqalish tezligi) har bir sharoit to'plami uchun doimiy bo'lib qoldi. Turli xil Vs30 qiymatlariga: 250,

300, 350, 400, 450, 650 va 750 m/s ega bo'lgan modellar ko'rib chiqildi. Har bir modelning amplituda-chastota xarakteristikalarini qattiq yarim fazoning tekis yuzasiga berilgan kirish ta'sirining dominant chastotalari bilan solishtirganda, 250 m/s va 300 m/s dagi modellar guruhida grunt xususiy chastotalari kirish spektri chastotalari bilan to'liq mosligi, 350 m/s li modellar guruhining katta qismi va 400 m/s li guruhda qisman chastotalarning mosligi topildi. Bundan shuni anglash mumkinki, rezonans xususiyatlarning seysmik tebranishlar parametrlariga ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi. Vs30 650 m/s va 750 m/s bo'lgan modellarda kirish ta'sirining dominant chastotalari gruntning xususiy chastotalaridan uzoqda joylashganligi ko'rindi (1-rasm). Bu shuni anglatadiki, o'rtacha ko'ndalang to'lqin tarqalishi tezligi 450-500 m/s dan ortiq bo'lgan qattiq grunt qatlamlarida rezonans xususiyati namoyon bo'lmaydi. Aniqlanishicha, rezonans effekti namoyon bo'lgan grunt qatlamlari modellarida PGA qiymatining o'zgarishi kuzatilgan (2-rasm), seysmik jadallik orttirmasi qiymatlari esa o'zgarishsiz qolgan.



1-rasm. Kirish ta'sir chastotalari (1-qator) va modellarning (Vs30-250,300,350,450,650,750 m/s) xususiy chastotalari o'rtasidagi muvofiqlik grafigi.




2-rasm. Gruntlarning PGA ko'rsatkichining grunt qalinligiga nisbatan o'zgarishi grafigi


A.S.Aleshin (2018) tomonidan olib borilgan nazariy hisob-kitoblar asosida, grunt qatlaminin seysmik tebranishlar spektri va gruntning dinamiklik koeffitsienti o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatdi. Grunt qatlaminin dinamiklik koeffitsienti siljish

to‘lqinining normal tarqalishi ostida, qattiq yarim fazoning tekis yuzasida yotadigan bo‘shoq bir jinsli grunt qatlamining rezonans xususiyatlarini tavsiflaydi. Aniqlanishicha, kiruvchi seysmik to‘lqinining chastotasi (f) grunt qatlamining tabiiy tebranish chastotasiga (f_0) to‘g‘ri kelganda rezonans paydo bo‘ladi. Rezonans sharoitida dinamiklik koeffitsienti sezilarli darajada oshadi. STRATA, Proshake va Deepsoil kabi modellashirish dasturlari mavjud bo‘lib, ular javob spektrlari nisbatining berilgan ma’lumotlari (ya’ni, grunt qatlamlarining reaksiyasi amplitudasining kirish to‘lqin amplitudasiga nisbati) asosida grunt qatlamlarining dinamiklik koeffitsientini aniqlashga imkon beradi. Toshkent shahri hududidagi grunt qatlamlari (30 m chuqurlikgacha) uchun STRATA dasturidan foydalanib, turli chastotalardagi grunt qatlamlarining dinamiklik koeffitsienti hisoblab chiqildi. Bunda Toshkent shahri hududi uchun ishlab chiqilgan seysmogrunt modellari ma’lumotlaridan foydalanilgan. Hisoblash natijalari asosida seysmik qattqlik qiymatidan tebranish davri va maksimal dinamiklik koeffitsienti ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi grafiklari tuzildi (3 va 4-rasm).

Olingan grafiklarga asoslanib, grunt qatlamlarining seysmik qattqligi qiymatlarining pasayishi bilan dinamik koeffitsienti maksimal qiymatga erishadigan davr ortadi, degan xulosaga kelish mumkin. Bundan tashqari, gruntlarning seysmik qattqligining pasayishi dinamik koeffitsientning maksimal qiymatining oshishi bilan kuzatiladi.




3-rasm. Seysmik qattqlikka nisbatan dinamiklik koeffitsientning eng yuqori davri



4-rasm. Maksimal dinamik koeffitsientning seysmik qattqlikka bog'liqligi grafigi

Olingan natijalardan qulayroq foydalanish uchun ma’lumotlar $M=1/R$ gruntlarning seysmik qattqligining teskari qiymatlariga aylantirildi (5-rasm).



5-rasm. Maksimal dinamiklik koeffitsientning seysmik qattqlikning nisbiy qiymatiga bog‘liqligi grafigi.

Ko‘rsatilgan grafik empirik chiziqli bog‘liqlikni anglatadi, bu yerda grunt dinamik koeffitsientining maksimal qiymati quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$b=264 \cdot M+1,8 \quad (1)$$

Toshkent shahri hududi uchun ajratilgan muhandislik-geologik rayonlar va uchastkalar doirasida grunt qatlamlari dinamik koeffitsientining maksimal qiymatini hisoblash ishlari olib borildi. Olingan empirik bog‘lanish asosida Nurafshon va Chirchiq shaharlari uchun maksimal dinamik koeffitsienti ko‘rsatkichi hisoblab chiqildi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi Toshkent, Nurafshon va Chirchiq shaharlari hududlarida tarqalgan gruntlar uchun dinamiklik koeffitsientning maksimal qiymatini baholash asosida **“Shahar hududlarini seysmik mikrorayonlashtirishda seysmogrun्त modelleridan foydalanish”**ga bag‘ishlangan. Seysmik jadallik orttirmasini hisoblash usuli va Toshkent shahrining seysmik mikrorayonlashtirish xaritasi taklif etiladi.

Seysmik mikrorayonlashtirish bo‘yicha mavjud qo‘llanmalarda seysmik qattqlik usuli seysmik jadallik orttirmasini baholashning to‘g‘ridan-to‘g‘ri usuli sifatida belgilanadi, bu asosan rezonans xususiyatlarini hisobga olmagan holda 30 m grunt qatlamidagi ko‘ndalang to‘lqin tarqalish tezligining o‘rtacha qiymatlariga asoslanadi. Afsuski, grunt qatlamlarining rezonans xususiyatlari rezonans tebranish chastotalarini aniqlash bilan chegaralanadi va hisob-kitoblarda qatlamlarning dinamiklik xususiyati inobat olinmaydi.

Ko‘p qavatli binolar va inshootlarning, ayniqsa muhim obyektlarning seysmik ta‘sirini aniqroq baholash uchun Rossiya Federatsiyasi me‘yoriy hujjatlari quyidagi tenglama bilan aniqlanadigan dinamik koeffitsientdan foydalanishni taklif qiladi (CII 283;1325800,2016):

$$\Delta I = (K) \cdot \lg b \frac{R_0}{R_0 + R_{30}} \quad (2)$$

bu yerda ΔI - seysmik jadallikning orttirmasi; K - kuchlanish koeffitsienti, u grunt qatlamining qattqligining qattiq yarim fazoga nisbatiga qarab belgilanadi; odatda 2,5 yoki 3,3 (rus standartlarida 2,5) qabul qilinadi; R_{30} - grunt qatlamlarining seysmik qattqligi, R_0 - referent gruntning seysmik qattqligi, b - maksimal seysmik

dinamiklik koeffitsienti. Shuni ta'kidlash kerakki, grunt sharoitlari $R_0=R_{30}$ va $b=2$ ga to'g'ri kelganda, seysmik jadallik orttirmasining hisoblangan qiymatlari 0 ballni tashkil qiladi.

Toshkent shahrining grunt qatlamlari uchun kuchlanish koeffitsientini aniqlash uchun tegishli hisob-kitoblar asosida grunt sharoitida kuchlanish koeffitsientining qiymati $K=3,3$ ekanligi aniqlandi. Bunda etalon grunt 0 ballga to'g'ri kelganida, $K=2,5$ ko'rsatkichida qiymatlarning kamayishi kuzatildi.

Toshkent shahrining seysmogrunt modellaridan foydalangan holda, bir qator hisob-kitoblar o'tkazilgandan so'ng, seysmik jadallik orttirmasini aniqlashning yakuniy tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

$$\Delta I = 3,3 \cdot \lg b \frac{R_0}{R_0 + R_{30}} \quad (3)$$


Shahar hududlaridagi grunt qatlamlari uchun dinamiklik koeffitsientning maksimal qiymatlari 1 tenglama bilan aniqlanadi. 6-rasmda tanlangan muhandislik-geologik rayonlar va uchastkalar uchun dinamiklik koeffitsienti qiymatlarining taqsimlanishi ko'rsatilgan. Shaharning muhandislik-geologik hududlariga dinamik koeffitsientning quyidagi o'rtacha qiymatlari mos keladi.

A rayon – 2.2		B rayon–2.3					
<div style="display: flex; justify-content: space-around;"> <div style="border: 1px solid black; padding: 10px; text-align: center;">A1 1.96</div> <div style="border: 1px solid black; padding: 10px; text-align: center;">A2 2.06 - 2.36</div> </div>		B1	B2	B3	B4	B5	B5
		2.05	2.00	2.03	2.04	2.07	2.16
		-	-	-	-	-	-
		2.25	2.41	2.50	2.16	2.34	2.39
C rayon – 2.25		D rayon – 2.0					
C1	C2	C3	C4	C5	D1		D2
2.0	2.25	2.04	2.03	2.07	2.0 – 2.2		1.95-2.2
-	-	-	-	-			
2.35	2.29	2.46	2.33	2.18			1.9-2.1

6-rasm. Toshkent shahrining muhandislik-geologik rayonlari va uchastkalari bo'yicha dinamik koeffitsientning taqsimlanishi.

Hisob-kitoblar davomida qattiq grunt qatlamli hududlarda dinamiklik koeffitsientning maksimal qiymatlari eng past ko'rsatkichlarga ega ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari, seysmik jadallik orttirmasini hisoblashda amaliy foydalanish uchun dinamiklik koeffitsient qiymatlarini shahar hududi bo'ylab taqsimlanishi xaritasi tuzildi.

Seysmik jadallik orttirmasi 3 formula bo'yicha hisoblab chiqilgan. Seysmik jadallik orttirmasi xaritasi dinamik koeffitsientning taqsimot xaritasiga asoslanadi. Toshkent shahri hududi bo'yicha seysmik jadallik orttirmasi -0,2 dan 1 ballgacha o'zgarishi kuzatildi (7-rasm).




7-rasm. Seysmik jadallik orttirmasi xaritasi, ballarda

Seysmik ta'sirlarning intensivlik qiymati Toshkent shahridagi seysmik xususiyatlari bo'yicha II toifa gruntlar uchun, seysmik ta'sirlar darajasi 50 yil ichida 0,95 dan oshmaslik ehtimoli bilan, 8,08 ball (MSK-64 makroseysmik shkala bo'yicha) etib belgilanadi.

Referent grunt ko'ndalang to'lqin tarqalish tezligi 660 m/s va zichligi 2 g/sm³ bo'lgan grunt qatlami olinib, $b=2$ dinamiklik koeffitsientga to'g'ri keladi.

Seysmik jadallikning eng past qiymati (7,93 ball) D3 muhandislik-geologik uchastkasida qayd etilgan bo'lib, dinamiklik koeffitsientining past qiymatlari bilan, seysmik xususiyatlari bo'yicha ikkinchi toifadagi gruntlar bilan tavsiflanadi (8-rasm).




8-rasm. Dinamik koeffitsientni hisobga olgan holda tuzilgan Toshkent shahrini seysmik mikrorayonlashtirish xaritasi

Eng yuqori intensivlik qiymati (9,2 ball) B3 uchastkasida qayd etilgan, bu yerda qalin va past zichlikga ega va rezonans tebranishlarning yuqori amplitudali dispers gruntlar ustunlik qiladi.

Tuzilgan seysmik mikrorayonlashtirish xartasidan ko‘rinib turibdiki, 2023-yilda seysmik qattqlik usuli bo‘yicha tuzilgan mikrorayonlashtirish xartasiga nisbatan 9 balli zonaning chegaralari ortgan.

Seysmik qattqlik usuli yordamida hisoblangan seysmik jadallik orttirmasi qiymatlarini dinamiklik koeffitsientni hisobga olgan holda jadallik orttirmasi qiymatlari bilan solishtirganda, aniqlandiki: dinamiklik koeffitsientini hisobga olgan holda aniqlangan seysmik jadallik orttirmasining musbat qiymatlari seysmik qattqlik usuli bilan olingan ΔI ning musbat qiymatlaridan 22% gacha katta qiymatga, seysmik jadallik orttirmasining manfiy qiymatlari 10% ga kamayishi mumkunligi kuzatildi (9- rasm).



9-rasm. Ikki usul bilan olingan seysmik jadallik orttirmasi qiymatlarini taqqoslash grafigi

Nurafshon va Chirchiq shaharlari hududi seysmik jadallik orttirmasi hisob-kitoblari mavjud seysmik qattqlikning usuli va Toshkent shahriga o‘xshash tebranish chastota xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan usul asosida amalga oshirildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Nurafshon grunt qatlamlari modellarida dinamik koeffitsientni hisobga olgan holda seysmik jadallik orttirmasini hisoblanganda, seysmiklik darajasi 7% dan 17% gacha oshadi. Chirchiq shahri hududining grunt sharoitiga ko‘ra, graviy-galechnik yotqiziqlarining tarqalish hududida eng kam o‘zgarishlar, shuningdek, Chirchiq daryosining IV terrasa lyoss gruntlarida eng katta o‘zgarishlar kuzatilgan, umuman olganda, dinamiklik koeffitsientini hisobga olgan holda hisoblangan seysmik jadallik orttirmasi foiz ko‘rinishidagi o‘zgarishi 0 dan 12% gacha oshadi.

XULOSA

1. Toshkent, Nurafshon va Chirchiq shaharlaridagi turli genetik tipdagi gruntlarning muhandislik-geologik va seysmik xossalari bo'yicha materiallar tahlili asosida, ma'lum qurilish obyektlarida, seysmik ta'sirlar jadalligini aniqlash uchun asos bo'lgan seysmogrunt modellarining ko'rsatkichlari belgilangan. Bularga 30 m chuqurlikdagi muhandislik-geologik qirqimlarning turlari, ko'ndalang to'lqinlarning tarqalish tezligi, grunt zichligi, qatlamlarning qalinligi va fazo bo'ylab o'zgaruvchi seysmik jadallik orttirmasi kiritilgan.

2. Shaharlar hududidagi muhandislik-geologik sharoitlarga ko'ra, seysmogrunt sharoiti modellarining har xil turlari ajratildi, ular muhandislik-geologik xususiyatlari, ko'ndalang to'lqinlarning tarqalish tezligi va gruntlarning stratigrafik tuzilishi bilan farqlanadi. Seysmogrunt modellar ma'lumotlariga ko'ra, seysmik ta'sirlarning jadalligi -1 ball dan +1 ballgacha o'zgarib turadi. Qiymatlarning farqlanishi nafaqat ko'ndalang to'lqinning o'rtacha tarqalish tezligiga (V_{s30}), balki muhitning qatlamlanishiga, ularning turiga, qalinligi va rezonans hodisalariga ham bog'liqligi aniqlangan.

3. Shaharlar hududidagi grunt qatlamlarining muhandislik-geologik va seysmik xususiyatlarini o'rganish natijalarini tahlil qilish asosida seysmik intensivlik qiymatining nafaqat grunt qatlamlarining seysmik xususiyatlariga, balki qatlamlarning qatlamlanishiga, qalinligi va soniga, shuningdek, fizik-mexanik parametrlariga (zichligi, g'ovakliligi, deformatsion xususiyatlari) bog'liqligi aniqlangan.

4. Zichligi va ko'ndalang to'lqin tezligi yuqori qiymatlariga ega gruntlarda (600-650 m/s dan ortiq) va bir jinsli gruntlarning tarqalish hududida dinamiklik koeffitsienti eng past qiymatlarga (graviy-galechnik yotqiziqlari va toshsimon lyoss) va ko'ndalang to'lqin tezligi V_{s30} 400 m/s gacha bir jinsli bo'lgan dispers gruntlarda (yuqori g'ovaklikka ega, cho'kuvchan lyoss) dinamiklik koeffitsienti ortishi, grunt qatlamlarining seysmik tebranishlarining o'ziga xosligi bilan bog'liqlik aniqlangan.

5. Respublikaning 18 ta shaharlari hududi uchun ishlab chiqilgan seysmogrunt modellarining tahlili shuni ko'rsatdiki, grunt sharoitlarining eng ko'p soni (45%) V_{s30} 301 - 400 m/s oralig'ida to'g'ri kelgan bo'lib, ular dinamiklik koeffitsientning differensiallashgan qiymatlari bilan tavsiflanadi.

6. Grunt qatlamlarining seysmik tebranishlarining chastota xususiyatlarini modellar orqali o'rganish asosida 5-15 m chuqurlikda rezonans hodisasining namoyon bo'lishi aniqlandi. Grunt qatlamlari tebranishlarining chastota parametrlarini hisobga olgan holda seysmik jadallik orttirmasini baholashda hisoblangan dinamik koeffitsientning ko'rastkichlaridan foydalanish taklif etilgan.

7. Har bir seysmogrunt modeli uchun dinamiklik koeffitsientlari hisoblab chiqildi va ular asosida dinamiklik koeffitsientining shaharlar hududida maksimal qiymatlarini taqsimlanish xaritasi tuzildi, bu xaritalardan Toshkent, Nurafshon va Chirchiq shaharlari hududida seysmik jadallik orttirmasini baholashda foydalanilgan.

8. Mavjud usul va muallif tomonidan taklif etilgan dinamiklik koeffitsientini hisobga olgan usul yordamida seysmik jadallik orttirmasini baholash natijalarini

taqqoslash Toshkent shahri hududida 22% gacha, Nurafshonda 17% va Chirchiqda 12% gacha o'sish qiymatini aniqlash imkonini bergan.

9. Dinamiklik koeffitsientini hisobga olgan holda tuzilgan seysmik jadallik orttirmasi xaritalari Toshkent, Nurafshon va Chirchiq shaharlarining seysmik mikrorayonlashtirish xaritalarini sezilarli darajada o'zgartiradi va seysmik mikrorayonlashtirish bo'yicha keyingi tadqiqotlarda grunt qatlamlarining taklif etilayotgan dinamiklik koeffitsientidan foydalanishni tavsiya qilinadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.24/30.12.2019.GM.96.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ ИНСТИТУТЕ ГИДРОГЕОЛОГИИ И ИНЖЕРНОЙ ГЕОЛОГИИ**

**АКАДЕМИЯ НАУК РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ИНСТИТУТ СЕЙСМОЛОГИИ**

ТЕШАЕВА РУХСОРА БАХОДИР КИЗИ

**РАЗРАБОТКА МОДЕЛЕЙ СЕЙСМОГРУНТОВЫХ УСЛОВИЙ ДЛЯ
СЕЙСМИЧЕСКОГО МИКРОРАЙОНИРОВАНИЯ ГОРОДСКИХ
ТЕРРИТОРИИ**

04.00.04– Гидрогеология и инженерная геология

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по
ГЕОЛОГО-МИНЕРАЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент-2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по геолого-минералогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.1.PhD/GM214.

Диссертационная работа выполнена в Институте сейсмологии Академии наук Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский-резюме) размещен на веб-странице Научного совета (www.hydroengeo.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Исмаилов Вахитхан Алиханович
доктор геолого-минералогических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Каюмов Абдубаки Джалилович
доктор технических наук, профессор

Мингбоев Кодиржон Розимович
кандидат геолого-минералогических наук

Ведущая организация:

Национальный университет Узбекистана

Защита диссертации состоится «21» августа 2025 года в «9:00» часов на заседании Научного совета DSc.24/30.12.2019.GM.96.01 при Института гидрогеологии и инженерной геологии (Адрес: 100041, г. Ташкент, ул. Олимлар, 64. Тел.: (+99871) 209-10-79; факс: (+99871) 262-62-15; e-mail: gidro_ilmkeng@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института гидрогеологии и инженерной геологии (регистрационный номер № 61) Адрес: 100041, г. Ташкент, ул. Олимлар, 64. Тел.: (+99871) 209-10-79; факс: (+99871) 262-62-15; e-mail: gidro_ilmkeng@mail.ru.

Автореферат диссертации разослан «4» августа 2025 года.

(реестр протокола рассылки № 10 от «4» августа 2025года)



А.А. Мавлонов,
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.т.н., старший научный сотрудник

М.Р. Жураев,
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор философии (PhD) по г.-м.н.

И.Х. Хабибуллаев,
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой практике в области оценки сейсмической опасности и сейсмического риска большое значение имеют исследования влияния грунтовых условий на параметры сейсмических колебаний. Грунтовые условия в зависимости от геолого-литологического строения, физико-механических и сейсмических свойств во многом определяют уровень сейсмических воздействий на инженерные сооружения. Научно-практические исследования параметров сейсмических колебаний грунтовых условий являются основой для достоверного прогноза интенсивности сейсмических воздействий на определенных территориях. В связи с этим комплексное изучение грунтовых условий при сейсмическом микрорайонировании с использованием сейсмогрунтовых моделей повышает точность оценки уровня сейсмического воздействия на строительных площадках.

В развитых странах мира, в огромном масштабе проводятся целенаправленные мировые исследования по разработке теоретических и методических основ прогнозирования сейсмического воздействия на инженерные сооружения с учетом влияния грунтовых условий на строительных площадках. При этом использование сейсмогрунтовых моделей, основанных на знаниях физических свойств грунтов и выявленных особенностях распространения сейсмических колебаний на различных грунтовых толщах, позволяет более достоверно оценивать сейсмические воздействия на строительных площадках. Это позволяет создавать более безопасные и устойчивые к сейсмическим воздействиям инженерные сооружения, обеспечивая сейсмическую безопасность населения и территорий.

В связи с тем, что территория Республики Узбекистан расположена в сейсмически активном регионе и испытывает активный рост урбанизации, особенно в крупных городах научные исследования по оценке сейсмической опасности на основе сейсмического микрорайонирования территории с учетом влияния грунтовых условий становятся необходимыми и востребованными. В стратегии развития Узбекистан-2030 определены важные задачи: «...Кардинально улучшить экологическую обстановку в республике, устранить экологические проблемы и явления, влияющие на жизнедеятельность человека...».² В связи с этим важно проводить научные исследования по составлению карт сейсмического микрорайонирования с применением новейших методов и технологий, учитывая особенности инженерно-геологических условий территории республики.

Для обеспечения сейсмической безопасности и сейсмостойкости сооружений, повышения уровня науки в данной области Президентом Республики Узбекистан принято Постановление №ПП-4794 «О мерах по коренному совершенствованию системы обеспечения сейсмической

² Указ Президента Республики Узбекистан от 21 февраля 2024 г. № УП-37 «О Государственной программе по реализации Стратегии Узбекистана».

безопасности населения и территории Республики Узбекистан» от 30.07.2020 г., также принять Указ Президента Республики Узбекистан № УП-144 от 30 мая 2022 г. «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы обеспечения сейсмической безопасности Республики Узбекистан». Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, определенных в нормативных правовых документах, связанных с обеспечением сейсмической безопасности населения и регионов.

Соответствие исследований приоритетам республиканского научно-технического развития. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетом развития науки и техники республики – VIII «Науки о Земле (геология, геофизика, сейсмология и переработка минерального сырья)».

